

TIL-MILLAT KO'ZGUSI

*BUXORO VILOYATI JONDOR TUMAN 45-MAKTAB BOSHLANG'ICH
TASHKILOT YETAKCHISI
OZODA JO'RAYEVA.*

(X.DAVRON)

9-14 GURUH TALABASI JO'RAYEVA OZODA

Kalit so'zlar: Til, inson fuqaro, O'zbekiston, millat, Konstitutsiya, huquq, ona tili, fazilat, davlat,

*“Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga,avvalo ona allasi,ona tilining betakror
jozibasi bilan singadi.Ona tili bu- millatning ruhidir.O'z tilini yo'qotgan har qanday
millat o'zligidan judo bo'lish muqarrar.*

ISLOM KARIMOV.

Til –inson ma'naviyatining beshigidir .1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat dili maqomi berildi.Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida 4-moddasida shunday deyilgan; O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatları va an'anaları hurmat qilinishini ta'minlaydi,ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Til –millat ko'zgusi ,dilimiz durdonasidir.Ona tili bu-ilk bor onalarimiz beshik tebratib aytgan alla,ona tili bu- Bobur bobom o'zga yurtda shoh va shoir bo'la turib qalqm tebratgan til,ona tili bu-Avaz O'tarning ;”Til robitali olamayondir ” degan so'zlaridir.Ona tilimiz nihoyatda so'zga boy va serjilo tildir.Alisher Navoiy aytganlaridek;”Tilimiz o'n sakkiz ming olamdan boyroq bo'lgan shunday xazinadirki,har bir dur-u gavhari osmon yoritqichlaridan porloq shunday bir gulzordirki,har bir guli chaman lolalaridan ham go'zalroqdir” . Abdulla Avloniy aytganidek ‘Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oynayi hayoti til va adabiyotdir.Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdir”.Ha haqiqatdan ham ona tili dunyoning eng qadimiy va boy tillaridandir.Bu til beqiyos imkoniyatlari qadimiy toshbitiklarda,xalqimizning zamonlar sinovidan o'tib kelayotgan maqol va hikmatli so'zlari,betakror iboralari,qo'shiq u dostonlarida yaqqol namoyon bo'lgan.

“Ko'ngil mahzanining qulfi til va ul mahzanning kaliti so'z bil' deb Navoiy bejizga aytmagan edilar. Navoiy bobomiz ijodlarini o'rganganimizda til haqida so'zlarni ko'plab uchratishimiz mumkin;til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir.

Asrlar davomida ,o'zbek xalqimiz svilizatsiyaga ,umumbashariy qadriyatlar ,rivojiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda.Bunda esa ona tilimizning o'rni

beqiyos. Chunki bu til bo'lmasa Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit – turk" kitobi Ahmad Yassaviy hikmatlari, Alisher Navoiy "Xamsa"si Bobur Mirzoning "Boburnoma"si, A Qodiriyning romanlari, Cho'lpon va A Oripovning o'tkir shariyati yaratilmagan bo'lardi. Shuning uchun ona tilimiz millatimiz ruhining timsoliga aylanib ketgan.

ONA TILIM

TILLAR ICHRA ENG BUYUGI O'ZINGSAN,
ONAMDAYIN SEVIMLISAN, SUYUKSAN.
SENDA BITDI, QANCHA DAHOLAR DOSTON,
SEVIB O'QILMOQDA U HAR DOIM HAR ON.
ONA TILIM, FANLAR ICHRA SHOHDIRSAN,
SEN INSON MA'NAVIYATINING BESHIGISAN.
YURT SOG'INCHI QALBIDA JO'SH URGANDA HAM,
BOBUR ONA TILIDA –TEBRATDI QALAM,
MUSTAQIL YURTIMDA, MILLAT RUHISAN,
ONA TILIM, ROBITAYI OLAMAYONSAN.
ONA TILIM, FANLAR ICHRA SHOHDIRSAN
SEN INSON MA'NAVIYATINING BESHIGISAN.

TILLAR IJTIMOYIY MAVQEYIGA KO'RA, DAVLAT TILI MAQOMI RASMIYTILDAN YUQORIROQ MAVQEGA EGA. DAVLAT TILI MA'LUM DAVLATNING SYOSIY IJTIMOYIY VA MADANIY DOIRASIDA BIR QATOR IJTIMOYIY VAZIFALARNI BAJARUVCHI VA SHU DAVLAT RAMZIY BELGISI HISOBLANUVCHI TILDIR.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV TOMONIDAN O'ZBEK TILI MAQOMI BERILGANLIGINING 30YILLIGI MUNOSABATI BILAN SO'ZLAGAN NUTQINI KELTIRISHIMIZ MUMKIN: "KIMDA KIM O'ZBEK TILINING BOR LATOFATINI JOZIBASI VA TA'SIR KUCHINI VA CHEKSIZ IMKONIYATLARINI HIS QILMOQCHI BO'LSA, MUNIS ONALARIMIZNING ALLALARINI MING YILLIK DOSTONLARINI, O'LMAS MAQOMLARINI ESHITSIN, BAXSHI VA HOFIZLARIMIZNING SEHRLI QO'SHIQLARIGA QULOQ TUTSIN".

"O'ZBEK TILI NAFIS VA MUSIQA OHANGIDEK JOZIBADOR 'DEB AYTGAN A.M.KOZLYANINA.

XULOSA QILIB AYTADIGAN BO'LSAM, TILNI SEVISH, UNI ARDOQLASH, MILLATNI SEVISH VA UNI QADRLASH BILAN TENG HISOBLANADI.

ONA TILIM, SEN BORSAN SHAKSIZ
BULBUL KEYIN SHE'RG'A SOLAMAN
SEN YO'Q BO'LGAN KUNING, SHUBHASIZ
MEN HAM TO'TI BO'LIB QOLAMAN
(A.ORIPOV)

“O'ZBEK TILI KAMBAG'AL EMAS, BALKI O'ZBEK TILINI
KAMBAG'AL DEGUVCILARNING O'ZI KAMBAG'AL .ULAR O'Z
NODONLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TO'NKAMASINLAR’
(A.QODIRIY)

KULIB KETDI NECHA DUNYOLAR,
KULDI HAYOT YIG'LADI O'LIM
SEN DEB QURBON BO'LDI BOBOLAR.
ULAR KETDI, SEN QOLDING ,TILIM.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003.
2. Tohirov O'. O. Texnologiya o'quv fani davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini ta'lim amaliyotiga joriy etish metodikasi. // Metodik tavsiyanoma. – T.: RTM, 2017.
3. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o'qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015.
4. S.Bekmurodova. Texnologiya fanini o'qitishga yangicha yondashuv. Metodik qo'llanma. – Toshkent. 2017.